my.gov.uz

Ўзбекистон Республикаси
Қурилиш ва
уй-жой коммунал
хўжалиги вазирлиги.

№ 9851-2567-6c25-6435-7d81-2961-7347
Ҳужжат яратилган сана: 2024-12-25
Ариза рақами: 157656403

Ҳужжат берилган: "UNAR PRO" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
СТИР: 300753677

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ҚУРИЛИШ ВА УЙ-ЖОЙ КОММУНАЛ ХЎЖАЛИГИ ВАЗИРЛИГИ

Тошкент шахар Қурилиш бош бошқармаси

Лойиҳа-смета ҳужжатларини келишиш бўйича Архитектура ва шаҳарсозлик кенгаши ишчи органининг

2024-12-25 даги 157656403 -сонли

ХУЛОСАСИ

т/р	Тақдим этиладиган маълумотлар	
1.	Ариза рақами:	157656403
2.	Мурожаат этувчи Лойиҳа ташкилотининг номи:	"UNAR PRO" MChJ
3.	Лойиҳа-смета хужжатларининг буюртмачиси номи:	Djurabayev Sardor Tursunmurotovich
4.	Объект манзили:	Яккасарой тумани, Абдулла Қаххор 6-тор 1-берк ва Нукус кўчаларида.
5.	Лойиҳа-смета хужжатларининг номланиши:	Эскизный проект «Жилого комплекса » расположенного по адресу: ул Нукус Яккасарайского района, город Ташкент» (Пересогласования фасада и подземной парковки)
6.	Архитектура-режалаштириш топшириғининг реквизитлари:	1726-1726287-16987

Лойихани кўриб чиқиш натижаси

т/р	Категория	Натижа	Изох
1.	Сўровноманинг тўғри тўлдирилганлиги:	Ижобий	
2.	Объект бош режасининг ечими тўғри топилганлиги:	Ижобий	
3.	Объектнинг меъморий ечими тўғри топилганлиги:	Ижобий	
4.	Лойиҳада автотураргоҳ масаласи ҳал этилганлиги:	Ижобий	
5.	Қурилиш чизиғига амал қилинганлиги:	Ижобий	

6.	Ситуацион планда аниқ кўрсатилганлиги:	Ижобий	
7.	Ёнғин ҳавфсизлиги ва санитария талабларига амал қилинганлиги:	Ижобий	
8.	Лойиҳада имконияти чекланган шаҳсларинг манфаатлари ҳисобга олинганлиги:	Ижобий	
9.	Лойиҳада энергиясамарадорлик талабларига амал қилинганлиги:	Ижобий	
10.	Лойиҳа ташкилоти лицензия орқали рухсат берилган соҳа доирасидан ташқари объектнинг лойиҳаси ишлаб чиқилганлиги:	Ижобий	
11.	АРТ талабларидан четга чиқиш:	Ижобий	

Алоқадор ташкилотларнинг хулосалари:

Ҳудудий ёнғинга қарши назорат хизмати: Келишилган;
Қўшимча маълумотлар: “UNAR PRO” MChJ raxbariga Yakkasaroy tumani FVB raxbariyati 2024-yil 02-noyabr kuni YIDXP portalidan kelib tushgan №157656403-sonli murojaat xatiga asosan Yakkasaroy tumani Nukus ko‘chasida joylashgan « UNAR PRO » MChJ tomonidan ko‘p kvartirali turar joy majmuasi sifatida ixtisoslashtirib rekonstruksiya qilish bo’yicha ishlab chiqilgan dastlabki eskiz loyixasini o'rganib chiqildi. Yakkasaroy tumani Nukus ko‘chasida ko‘chasida joylashgan « UNAR PRO » MChJ tomonidan ko‘p kvartirali turar joy majmuasi qurish bo‘yicha ishlab chiqilgan loyiha-smeta hujjatlarining arxitekturaga oid qismini vakolat doirasida o‘rganib chiqilib, yer tagida o‘tgan barcha muhandislik tarmoqlarini ko‘chirish hamda quyidagi talablarni bajarish sharti bilan qurilishga tadbiq etilishiga qarshilik bildirmaydi. - tashqi yong‘inni o‘chirishni taminlash uchun shahar suv taminoti tarmog‘idan 150 m radiusda kamida 100 l / s oqim tezligi bo‘lgan maxsus nasoslar yordamida suv olish imkoniyatiga ega bo‘lgan aylanma yong‘in gidrantlari bo‘lishi kerak. Yong‘in gidrantlarining joylashishi binoning jabhasida tashqi yoritish tarmog‘idan quvvatlanadigan yorug‘lik ko‘rsatkichlari bilan ko‘rsatilsin. Asos: ShNK 2.01.02-04 19.1 bandi; - yo‘llar va tutash hududlarning planirovkasi quyidagi imkonlarni ta’minlashi lozim: binoning barcha tomonlaridan yong‘in-qutqaruv texnikasi kirib kelishini, binodan evakuasiya chiqish joylariga yong‘in-qutqaruv texnikasi kirib kelishini, avtonarvonlar yoki avtoko‘targichlar orqali yong‘in o‘chiruvchilar yong‘in bo‘linmasida mavjud bo‘lgan har qaysi xona, kvartira, xavfsizlik zonasiga kirib borish imkoniga ega bo‘lishi taminlansin. Asos: ShNQ 2.01.02-04ning 1-son o‘zgartirish 3.9-bandi); - yong‘in o‘chirish texnikalarining o‘tish yo‘llarini kengligi 6 m.dan kam bo‘lmasligi kerak. Binoning baland qismining tashqi devorlaridan o‘tish yo‘llari chetigacha bo‘lgan masofa 8-10 metrni tashkil qilishi lozim. Yong‘in o‘chirish texnikalari o‘tadigan yo‘llarning burilish radiusi 18 m.dan kam bo‘lmasligi zarur. Boshi berk yo‘llar avtonarvon va avtoko‘targich burilishiga imkon yaratish uchun diametri 16 m.dan kam bo‘lmagan orolchalari mavjud burilish maydonlari bilan yakunlanishi zarur. Asos: ShNQ 2.01.02-04 ning 1-son o‘zgartirish 3.10-bandi); - yertula va sokol qavatda lift ro`parasida yong‘in chog‘ida havo bosimli 1-turdagi tambur–shlyuz o‘rnatishi nazarda tutilishi lozim. Asos; ShNQ 2.01.02-04 6.32 bandi; - N1-tashqi havo zonasi orqali ochiq o‘tish imkoni bo‘lgan qavatdan zina katagiga kirish, bunda havo zonasi orqali o‘tish tutun qoplamasiga ta’minlangan bo‘lishi lozim. (to‘g‘ri joylashtirilmagan) ShNQ 2.01.02-04 4.15.bandi; Qurilishi rejalashtirilayotgan « UNAR PRO » MChJ tomonidan ko‘p kvartirali turar joy sifatida ixtisoslashtirib rekonstruksiya qilish bo‘yicha ishchi loyihalari amaldagi SHNQ 2.08.02-09 “Jamoat binolari va inshootlari”, SHNQ 2.08.01-05 “Turar joy binolari”, SHNQ 2.01.02-04 “Bino va inshootlarining yong‘in xavfsizligi” 1-son o‘zgartish hamda amalda bo’lgan boshqa me’yoriy hujjatlarning talablariga asosan ishlab chiqilishi, (KMK) 2.04.13-99 Qozon qurilmalari va ShNK 2.04.08-13 gaz ta’minoti dizayn standartlari qoidalariga muvofiq ish olib borilishini, SHNQ 1.03.01-16 “Korxona, bino va inshootlarni kapital qurilish, loyiha-smeta hujjatlarining tarkibi, ishlab

chiqilishi, ma’qullanishi va tasdiqlanishi tartibi” me’yoriy xujjatining 5.9-bandi talablariga asosan ishlab chiqilgan loyiha hujjatlarini yong‘inbardoshlilik va zilzilabardoshlilik bo‘yicha ekspertizadan o‘tkazilishini hamda “Shaharsozlik” Kodeksning 60-moddasiga asosan ishlab chiqilgan loyiha-smeta hujjatlari FVVning hududdiy tuzilmalariga ko‘rib chiqish uchun taqdim etilishi lozimligi ma’lum qilinadi yuqorida ko‘rsatilgan tadbirlarni bandlaridan biri amalga oshmasa ushbu xulosa o‘z kuchini yo‘qotadi. Yakkasaroy tumani FVB boshlig‘i podpolkovnik U.Muxamedjanov;

Ҳудудий санитария-эпидемиология хизмати: Келишилган;
Қўшимча маълумотлар: Эскизный проект 12 ти этажного (3 блока) много квартирного жилого здания на нижних этажах торгово бытовых услуг, 2-х уровневой парковкой «Жилого комплекса» расположенного по адресу: ул.Нукус, Яккасарайского района, г.Ташкента (пере согласование фасада и подземной парковки) соответствует ШНК 2.07.01-03* «Градостроительство. Планирование развития и застройки территорий городских и сельских населенных пунктов» , при условии выполнения пункта 21.4 и согласно СанПиН РУз. № 0339-16 «Санитарные правила и нормы планировки и застройки населенных мест Узбекистана» доведения удельного веса озелененных территорий различного назначения в пределах застройки от 13.2% до не менее 25%. с внесением в эскизный проект.;

Хулосани тасдиқлаган ходим: O`zbekiston Respublikasi Qurilish Vazirligi;



Маъқулланди:

1. Хулоса берувчиларнинг хулосасида кўрсатилган талабларни бажариш, мухандислик тармоғидан ҳимоя масофаси сақлаш ёки ўз ҳисобидан кўчириш, дарахтларни сақлаб қолиш шарти билан, юридик ҳужжатга эга тегишли ер майдони қисмида лойиҳа ишларини давом эттириш.

2. Лойиҳалаш жараёнида АРТда кўрсатилган талабларни бажариш талаби белгиланди.

Қуйидаги талаблар: Лойиҳада келишиб берилган барча бино ва иншоотларда тунги ёритиш тизимини ўрнатиш талаби белгилансин ва ушбу талаб лойиҳада кўрсатиб ўтилсин.

Кенгаш аъзолари томонидан юқорида кўриб чиқилган лойиҳалар юзасидан ШНҚ асосида ҳар бир берилган талаб ва шартлар тегишлилиги бўйича назоратга олиш ва ушбу ишлар амалга оширилмагунга қадар Тошкент шаҳар қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги соҳасида назорат қилиш инспекцияси бино фойдаланишга қабул қилинмаслиги назоратга олсин.

"Ҳудудий электр тармоқлари" АЖнинг Тошкент шаҳар филиали, "Hudud gaz poytaxt" газ таъминоти филиали, Тошкент шаҳар "Сув таъминоти" МЧЖ директорлари ҳар лойиҳани аниқ ҳисоб китобларга таянган ҳолда юкламалар яратиш шартларини аниқ белгилаб берсин. Белгиланган меъёрлардан ошиқча юкламаларда ишлаётган ҳудудларда коммуникация тармоқларига уланишга йўл қўймасин.

Экология, атроф-мухитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлигининг Тошкент шаҳар бошқармаси ҳар бир ҳудудни ўрганиб, юқоридаги ҳар бир лойиҳалар учун иқлим шароитига мос бўлган айланаси 18 см.дан, баландлиги 3 метрдан кам бўлмаган дарахтлар, 6 литрдан кам бўлмаган буталар экилишини назорат қилсин. Лойиҳалаш жараёнида атроф муҳитга таъсир кўрсатилиши тўғрисидаги баёнот лойиҳаси (ЗВОС) олиш шарти белгилансин.

Лойиҳада муҳандислик тармоқларининг юкламалари инобатга олган ҳолда техник шартлар олиш ва ушбу техник шартлар талабларини бажариш ҳамда уларга туташ ҳудудларнинг кўкаламзорлаштириш (дарахтлар, буталар, бошқа ўсимликлар ва навниҳолларни экиш) майдонлари лойиҳа учун ажратиладиган ер участкалари умумий майдонинг 25 фоизидан кам бўлишига йўл қўйилмаслик талаби белгилансин.

Лойиҳа ташкилотлари томонидан лойиҳаланаётган биноларда углеводородлар ва электр энергияси истеъмолини камайтириш мақсадида, энергия тежамкор қурилиш материалларидан фойдаланиш, иссиқ сув таъминоти, ёритиш ва бивалент иситиш тизими учун фотоэлектрик тизимлар, гелиоколлекторлар ва иссиқлик насосларини ўрнатиш, мухандислик тармоқларини ҳам инобатга олинсин.

Лойиҳаларни кўриб чиқиш натижаси бўйича мутасадди бошқармалар ўз йўналиши бўйича маъсул эканлиги белгилаб қўйилсин.

Мазкур ҳудудда лойиҳа асосида қурилиш ишларини олиб бориш учун ён қўшниларни розилигини олиш тавсия этилади.

Ушбу хулоса қурилиш ишларини бошлашга асос бўлмаслигини, шунингдек, хулоса талаблари бажарилмаган тақдирда ҳамда тегишли ер майдони чегарасидан чиқиб кетган ҳолда лойиҳалаш ишлари олиб борилган тақдирда қонунчиликда белгиланган тартибда хулосани бекор қилинишига сабаб бўлиши мумкинлигини ва бундай ҳолатда жавобгарлик лойиҳа ташкилоти зиммасига юклатилишини маълум қиламиз.

Мазкур ҳужжат Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 15 сентябрдаги 728-сон қарорига мувофиқ Ягона интерактив давлат хизматлари порталида шакллантирилган электрон ҳужжатнинг нусхаси бўлиб, давлат органлари томонидан ушбу ҳужжатни қабул қилишни рад этишлари қатъиян тақиқланади. Ҳужжат ҳақиқийлигини repo.gov.uz веб-сайтида ҳужжатнинг ноёб рақамини киритиб ёки мобил телефон ёрдамида QR- кодни сканер қилиш орқали текшириш мумкин.

1201